

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek tilining forsiy til bilan aloqasi xususida	387
Г.И.Акрамова	
Лингвокультурологический аспект изучения текста	391
Н.М.Sotvaldieva	
The importance of teaching english on little classes.....	395
М.А.Khidirova	
Study of hyponym and hyperonym characteristics of wild animal names in english and uzbek languages.....	399
S.A.Aliyeva	
Rus tilshunosligida geortonimlarning tadqiq etilishi	404
К.В.Намозова	
To'y marosimlari folklorini inglizcha tarjimalarini qiyosiy o'rganishda milliy-madaniy xususiyatlarning namoyon bo'lishi.....	408
М.Т.Ишанханова	
<i>Бахс аль-Маталиб ва Хасс аль-Талиб</i> – новый взгляд на составление сочинения по грамматике арабскому языку	416
В.М.Хегай	
Семантическая актуализация прецедентных текстов в интертекстуальных заголовках печати	421
N.D.Djalilova	
The ways of improving speaking skills in esp classes (information technology)	426
N.K.Ergasheva	
Development and use of foreign languages	431
М.Г.Хошимов	
Типологический статус сложных предложений с адвербиальным компонентом финальности в языках разных систем	434
М.А.Xolbekova	
Foreign language and factors of its development.....	443

O'ZBEK TILINING FORSIY TIL BILAN ALOQASI XUSUSIDA
О СВЯЗИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА С ПЕРСИДСКИМ ЯЗЫКОМ
ON THE RELATIONSHIP OF THE UZBEK LANGUAGE WITH THE PERSIAN
LANGUAGE

Alimova Zarifa Vaxobovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rasulova Muattarxon²

²Farg'ona davlat universiteti lingvistika yo'nalishi (o'zbek tili) magistri

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va tojik aloqalari, do'stligi va qardoshligi ildizlari uzoq tarixga ega ekanligi, turkiy tilga fors-tojik tilidan so'z o'zlashish hodisasi alohida o'rin tutganligi, o'zbek va tojik xalqining ma'naviyati va madaniyati bir-biriga yaqinligi haqida, Somoniylar hukmronligi davrida, ayniqsa, XIII-XIV asrlarda tojik tilining turkiy tillarga ta'siri ortgani, natijada davlat rasmiy hujjatlari tojik tilida yuritila boshlagani haqida, shoir va yozuvchilar ikki tilda ijod qilganliklari, ikki til leksik boyligida o'zgarishlar yuzaga kelganligi, o'zbek tili tojik tilidan yoki aksincha tojik tili o'zbek tilidan so'z o'zlashtira boshlagani, o'zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanishi xususida so'z boradi.

Аннотация

В данной статье идёт речь про узбекско-таджикские отношения, дружба и братство, имеющее давнюю историю, про особое место заимствования слов из персидско-таджикского языка в узбекский язык, духовности и культуры узбекского и таджикского народов, о близости друг к другу, о влиянии таджикского языка на тюркские языки в период правления саманидов, особенно в 13-14 веках, в результате чего официальные государственные документы стали писаться на таджикском языке, поэты и писатели писали на двух языках, произошли изменения в лексическом богатстве двух языков. После того узбекский язык стал приобретать слова из таджикского языка или, наоборот, таджикский язык из узбекского языка, что связь языка узбекского народа с иранскими языками характеризуется тремя периодическими особенностями.

Abstract

This article talks about Uzbek-Tajik relations, friendship and brotherhood, which has a long history, about the special place of borrowing words from the Persian-Tajik language into the Uzbek language, the spirituality and culture of the Uzbek and Tajik peoples, about the proximity to each other, about the influence of the Tajik language into Turkic languages during the reign of the Samanids, especially in the 13th-14th centuries, as a result of which official state documents began to be written in the Tajik language, poets and writers wrote in two languages, and changes occurred in the lexical richness of the two languages. After that, the Uzbek language began to acquire words from the Tajik language or, conversely, the Tajik language from the Uzbek language, so the connection of the language of the Uzbek people with the Iranian languages is characterized by three periodic features.

Kalit so'zlar: yaqin qo'shnicilik, til aloqalari, so'z o'zlashish hodisasi, eroniy tillar, turkiy tillar, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy aloqalar, o'zbek xalqi etnogenezi.

Ключевые слова: близкое соседство, языковые отношения, феномен словообразования, иранские языки, тюркские языки, социально-политические и экономические отношения, этногенез узбекского народа.

Key words: close neighborhood, language relations, phenomenon of word acquisition, Iranian languages, Turkic languages, socio-political and economic relations, ethnogenesis of the Uzbek people.

KIRISH

O'zbek xalqining tojik xalqi bilan ko'p asrlik ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy aloqalari faqatgina jamiyat hayoti uchungina ta'sir qilib qolmasdan, balki uning til boyligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, chunki bu ikki xalqning ma'naviyati va madaniyati shunchalik yaqinki ular omuxtalashib ketgan. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi bu o'zaro munosabatlar haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog'iga o'xshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, yerimiz va suvimiz bor. Quvonch-u tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezgu an'alarini davom ettirib, xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashimiz va asrab - avaylashimiz kerak".

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbeklar va tojiklar har xil etnik guruh va turli til oilalariga mansub bo'lsa ham, lekin tarix ularning turmush va madaniyatini shu qadar bir-biriga bog'laganki, ularni ayro tasavvur qilish mushkul.

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zlashma so'zlarni o'rganish yuzasidan jahon tilshunosligida I. Zarubin, L.P.Yakubinskiy, A.Barannikov, L.S.Peysikov, R.A.Budagon, L.Blumfeld, I.K.Ovchinnikova, N.Z.Gadjiyeva, U.Vaynrayx, V.I.Abayev, M.N.Bogolyubov, V.S.Rastorguyeva, E.F. Volodarskaya, B.M.Grande, G.Gaysina, L.I.Jirkov, G.A.Kazakbayeva kabi tilshunoslar qator tadqiqotlari olib boranlar.

O'zbek tiliga fors-tojik tilining hamda o'zbek tilining tojik tiliga ta'siri yuzasidan K.Yusupov, H.G'ulomov, K.Rahmonberdiyev, H.Ne'matov, A.Berdialiyev, R.Xidirov, N.G'aniyeva, M.Zokirov, R.Rajabova, B.Jabborov, A.Yu.Fomin, S.Ashirboyev, S.Zokirova, Z.Alimova, Sh.Jo'rayev kabi tilshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib boranlar.

O'zbek va tojik aloqalari, do'stligi va qardoshligi ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi, uning ildizlari miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Ahamoniylar va miloddan avvalgi III-II asrlarda qang' davlatida boshlangan [4,34]. Balki o'zbek va tojik xalqlarining o'zaro aloqalari undan ham uzoq davrga borib taqalishi mumkin. Chunki bu ikki xalqlar o'rtasidagi aloqani o'zbek xalq dostonlarida ham uchratish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek xalq dostonlari namunalari ham fors-tojikcha o'zlashmalarning mavjudligi fikrimizning dalilidir. Masalan, xalq og'zaki ijodidagi dostonlardan Alpomish dostonida "Ne kampirlar kelib, tulkini inlatgan toziday bo'lib, boybichalarni angrib, o'rtaga olib turibdi", - jumlasini keltirilgan [8,10]. Ushbu jumladagi "tozi" so'zi fors tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, o'zbek tili izohli lug'atida shunday izohlanadi: Tozi — forscha, تازی chopag'on ov iti, uchqir arabiy ot. Oyoqlari ingichka, tumshug'i uzun, xipcha, yugurik ov iti. Bundan ko'rinadiki, ikki xalq o'rtasidagi o'zaro aloqalar uzoq tarixga borib taqaladi, chunki xalq dostonlarining qachon paydo bo'lgani ma'lum emas, ularning kelib chiqishi bir necha avvalgi asrlarga borib taqaladi. Tojik va o'zbek etnik guruhlari qadimda, ilk o'rta asrlarda va undan keyin ham yonma-yon o'zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy aloqada yashab kelganlar.

Mahmud Koshg'ariy "Totsiz turk bo'lmas, boshsiz bo'rk bo'lmas" deya ta'kidlaganidek, ularni bir-biridan ayro tasavvur qilish mushkul. Ya'ni tojiksiz turk bo'lmas, qalpoqsiz bosh. Manbalarda ma'lum bo'lishicha, Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilida so'zlashuvchi aholisi XI asrdan boshlab o'zini, toz, tot, tozi ya'ni tojik deb yurita boshlaydi [5,20].

Vaqt o'tishi bilan zamon, fan, ilm taraqqiy topib, olimlarning izlanishlari ham keng ko'lam ola boshladi. Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixining chuqur bilimdoni, akademik S.Tolstovning ta'kidlashicha, o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasini yaqin ming yilga qadimlashtirib, o'zbek xalqining turkiy va eroniy tilli aholisining ilk bor qorishuvi antik davrda yuz berdi, ya'ni Kang' davlati davriga borib taqaladi, degan g'oyani ilmiy asosladi. Asrlar davomida bir hududda hayot kechirgan ikki tilli bu xalqning o'zaro aralash tarida yashab kelgani natijasida o'zaro so'z almashish u tildan bu tilga yoki bu tildan u tilga so'z o'zlashtirish hodisasi ham yuz berdi.

Ayniqsa XI asrda turkiy tilga tojik tilidan so'z o'zlashish hodisasi alohida o'rin tutadi. Bu haqda K.Yusupov ham quyidagi fikrlarni keltiradi: "Professor A. Borovkovning ta'kidlashicha, o'zbek va tojik tillaridagi aralashish hodisasi — ikki tillilik hodisasi Mahmud Koshg'ariy davrida ham ancha kuchli bo'lgan [7,15].

Professor E. Begmatovning yozishicha, turkiy urug' va qabila tillari, jumladan, o'zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi:

1. Turkiy urug', qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug' tillari bilan aloqasi va qo'shilishi (qadimiy davrlarda).
2. O'zbek tilining forsiy til bilan (IX–X, XI–XV asrlar) aloqasi.
3. O'zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha) [3, 105-106].

Somoniy hukmronligi davrida, ayniqsa, XIII-XIV asrlarda tojik tilining turkiy tillarga ta'siri ortdi. Davlat rasmiy hujjatlari tojik tilida yuritila boshladi, shoir va yozuvchilar ikki tilda ijod qila boshladilar. Natijada ikki til leksik boyligida o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. O'zbek tili tojik tilidan yoki aksincha tojik tili o'zbek tilida so'z o'zlashtira boshladi.

TILSHUNOSLIK

Alisher Navoiy "Muhokamatul-lug' atayn" asarida fors tilining turkiy tillarga ta'sirini ta'kidlab quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "... turkning ulug' din kichigiga degincha, na navkardin begiga degincha sort (fors — Yo.S) tilidin bahramanddurlar. Andoqkim, o'z xurd ahvolig' a ko'ra ayta olurlar, balki ba'zi fasohat va balog'at bila ham takallum qilurlar" [1, 177].

Alisher Navoiy eski o'zbek tilini fors-tojik tili bilan solishtirib: "Alfoz va iborot va'z qilurda turk forsqa foiz kelibtur va o'z alfozida ishorat, iboratlariga maziyatlar ko'rguzubtur" ("so'z va iboralar yaratishda turk tojikdan ustun kelibdi va o'z tilida ishorayu iboralar ijod qilishda ortiqliklar ko'rguzibdi"), -deya ochiq-oydin yozgan edi. Shoir o'z so'zining iisboti uchun fors-tojik tilida ekvivalenti bo'lmagan so'zlar, sinonim va omonimlarga, turk tilidan fors tiliga o'tgan so'zlarga misollar ham keltirgan [9, 124].

Har bir tilning o'zligini saqlab qolish, ichki imkoniyatlarini va xususiyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ammo ichki imkoniyatlar bilan bir qatorda tashqi manbalarning ham ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi [10,32].

Ko'pgina manbalarda qadimgi xorazmliliklar tili Sharqiy Eron hududidagi qabilalar tili guruhiga yaqin, deb ta'kidlanadi. Eronning qadimiy qabilasi elam itlar deb atalgan bo'lib, ular qadim da elam tu tilidan, keyinchalik orom ey tilidan, forslar (ahm oniylar) davrida esa fors tilidan foydalanganlar. Ammo qadimgi Xorazm tilining fonetik, gram m atik tuzilishi va leksikasiga qaraganda Sharqiy eroniy tillar guruhidan o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. U asosan, sugld, o kg'uz, (ayniqsa, sak-massaget — U.S.) tillari oralig'idagi mustaqil til bo'lgan (18/70-bet). Qadimgi sug'd1 va Xorazm tillari IV—VII asrlardayoq turkiylashib ketaboshlagan bo'lsa-da, ularning qadimgi tillari haqida ma'lumot beruvchi ba'zi yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. Ulardan anglashilishicha sug'diy va xorazmiy yozuvlari va ularning tillari qisman VII-X asrlargacha qoilanilganligi, ba'zi manbalarda hatto XI-XII asrlarda ham mavjudligi qayd etiladi (60, 18/70-bet)

Tarixiy manbalar shundan darak beradiki, yurtimizda arab istilosi davrida elatlar va xalqlar o'zaro islomiy aqida va mafkura asosida birlashgan bo'lsada, arab istilosiga qarshi kurashlar kuchayib borgan. Natijada, xalifalik Markaziy Osiyoda mahalliy aholidan o'z noiblarini tayinlab, hukmronlikni ularga topshirishga majbur bo'lgan. "

Shu asosda VIII asrning oxiri- IX asrning boshlaridan o'lkalarda mahalliy markazlashgan davlatlar shakllana boshladi. Markaziy Osiyo IX—X I11 asrlargacha bo'lgan tarixiga Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazm shohlar nomi bilan kirgan davlatlar shular jumlasidandir. "Bu davrlarda rasman muomala va rasmiy hujjat tili arab tili bo'lishiga qaramasdan turkiy va forsiy til amalda qo'llanilgan. Qadimgi turkiy tilning so'nggi davrlari tilida arab va fors tillarining ta 'siri kuchli seziladi. Shu bilan birga eski adabiy tilga o'sha davrlarda ancha rivojlangan, malu madabiy-badiiy an'analarga ega bo'lgan arab va fors tillarining ta'siri ham sezilarli darajada boigan edi. Ayniqsa, eski turkiy adabiy tilning lug'atiga, badiiy tasvir usullari, ifodalilik kabilarda samarali ta'sir etgan. Chunki bu davrlarda arab va fors tillarining mavqeyi ancha yuqori bo'lgan edi.

Tilshunos Z.Alimovaning ta'kidlashicha, tojiklar va o'zbeklar har xil etnik guruh va turli til oilalariga mansub bo'lsalar ham, lekin tarix ularning turmush va madaniyatini shu qadar bir-biriga chambarchas bog'laganki, bugungi kunda ularni bir-biridan ayro holda tasavvur qilish aslo mumkin emas [2, 11].

Tilshunos olim Y.D.Pinxasovning ta'kidlashicha, o'zbek va tojik tillarining boshqa-boshqa til tizimiga kirganligiga qaramay, bu tillardan bir-biriga ko'pgina so'zlar, iboralar, affikslar o'tgan. Bu til vakillarining ko'pchiligi bir-birlarini tushungan. Ayniqsa, tojiklar bilan o'zbeklar aralash yashagan joylarda (Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda va ularga yaqin qishloqlarda) aholining ko'pchilik qismi har ikki tilda, ya'ni o'zbek va tojik tillarida so'zlashgan [6,33-34].

XULOSA

O'zbek tilining lug'at tarkibi o'zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib, boyib borgan. O'zga tildan qabul qilingan so'z, ya'ni o'zlashma so'zlar lug'at tarkibining tashqi manba asosida boyishi samarasi hisoblanadi. Fors-tojik tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan fors-tojik tiliga so'z, ibora va grammatik shakllar o'tgan, o'zlashgan va singib ketgan. Forscha-tojikcha o'zlashmalar kundalik turmush uchun eng zaruriy so'zlardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Танланган асарлар. 3 жилдли. –Тошкент: Фан, 1948. –III жилд.–Б. 177.
2. Алимова З. Ўзбек тилидаги форсча-тожикча ўзлашмаларнинг фонетик, лексик-семантик хусусиятлари хусусида. Филол.фан.бўйича фалсафа док. дисс.(PhD), -Фарғона, 2020. –Б.11.
3. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б.105-106.
4. Макаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этники тарихи. Тошкент: Университет,2007, Б.34.
5. Низомов Х. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон ва Тожикистон Республикалари ўртасидаги маданий алоқалар (1991-2007йиллар).т. ф.н.дисс.-Тошкент, 2010. -Б.20.
6. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969 .- Б.33-34.
7. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро алоқаси.ф.ф.н.дисс., -Тошкент, 1957.-Б.15.
8. Yo'ldoshev Q, Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik, Toshkent, "Mitti yulduz", 2019-yil, 10-bet.
9. Z Alimova. Tillarda o'zlashma so'zlarning mavzuiy jihatdan guruhlanishi. Бюллетень педагогов нового Узбекистана. 2023, 1(4). 124-126.
10. AZ Vaxobovna. On Some Persian-Tajik Plant Names in Navoy's Epos" Saddi Iskandari". (2023) Texas Journal of Philology, Culture and History 18, 32-37.